

O'RTA ASRLARDA DASHTI QIPCHOQ BILAN BOG'LIQ ETNOTOPONIMLARNI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR

Azimova Farangis

Sharof Rashidiv nomidagi Samarqand davlat universiteti,

Tarix fakulteti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20830301>

Annotatsiya: Mazkur maqola dashti qipchoq bilan bog'liq etnotoponimlarni aniqlashda bir qator usullar o'rganilgan. Tarixchi va etnograflarning Zarafshon vohasi etnonimlari bo'yicha olib borgan chuqur izlanishlari tahlil qilingan.

Kalit so'z: Dashti Qipchoq, Zarafshon, mo'g'ul, etnotoponim, turkiy, urug' Zarafshon vohasi etnotoponimlarning sezilarli bir qismini asli kelib chiqishi dashti qipchoqlik etnik guruhlar tashkil etishi ko'p yillardan beri tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortib keladi. O'rta asrlarga tegishli forsiy, turkiy tilli asarlar qatorida so'nggi o'rta asrlarda rus va boshqa yevropa tillardagi asarlarning bu masalani yoritib boshlashi Zarafshon vohasini etnotoponimlarini chuqur o'rganish zaruriyatini keltirib chiqardi..

Bu masalaga ilmiy jihatdan yondashila boshlagan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridayoq O'rta Osiyo, ayniqsa Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga qo'shni hududlardagi joy nomlarining, xususan, etnik atamalar bilan bog'liq aholi maskanlarining muayan bir qismi ilk va rivojlangan o'rta asrlarga tegishli ekani ilgari surilgan bo'lsa-da, dashti qipchoqlik ko'chmanchi elatlarga aloqador joy nomlarining mutlaq ko'pchilikni tashkil etishi rus va boshqa yevropa tillarida amalga oshirilgan izlanishlarda o'z aksini topgan edi [1]. XX asr boshlarida rossiyalik V.V. Bartold[2], V.V. Radlov[3] va boshqa sharqshunos va turkolog olimlarning yozma manbalar va etnografik izlanishlari natijasida mintaq aholisining tili, tarixiy, toponimikasi bilan bog'liq birmuncha masalalar o'z yechimini topdi[4]. Keyinchalik – XX asrning 20-30 yillarida mahalliy o'zbek, qozoq, qirg'iz, olimlari ham o'z tadqiqotlarida bu masalaga e'tibor qarata boshlab

[5], joylarda ilmiy ekspeditsiyalar olib borilgach, mintaqadagi tarixiy joy nomlari bo'yicha qorong'u bo'lib kelayotgan ko'plab muammolarga aniqlik kiritiladi.

O'rta Osiyolik toponimist olimlar orasida S. Qorayev, H. Hasanov, T. Nafasov, Oxunov, R. Do'simov, T. Salimov kabi tadqiqotchilar mamlakatimizning turli vohalardagi tarixiy joy nomlariga e'tibor qaratar ekan, Zarafshon vohasidagi aholi maskanlariga ham to'xtalib o'tishlari, vohadagi ko'plab etnotoponimlarni Buxoro, Jizzax, Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo, Surxon va Xorazm vohalardagi etnik atamalar bilan bog'liq toponimlar bilan solishtirishlari[6] natijasida bu borada katta ilmiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Shuningdek, Samarqand viloyati toponimlari bo'yicha izlanishlar olib borgan A. Turobov, N. B. Begaliyev, C.N. Bo'riyev izlanishlarida ham Zarafshon vohasi ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar o'zbek urug'larining o'rnini va ular bilan bog'liq etnonimlar ko'rib chiqildi [7]. Yaqin yillarda esa tarixchi va etnograf olim A. Malikovning Zarafshon vohasi etnonimlari bo'yicha olib borgan chuqur izlanishlari natijasida voha toponomikasidagi mavhum jihatlarga oydinlik kiritildi[8].

Ham xorijlik, ham mahalliy tadqiqotchilar mintaqa etnotoponimlarini aniqlashda bir qator ilmiy usullarga murojaat qilishgan. Ular orasida yozma manbalardagi ma'lumotlarni tahlil qilish, aholi migratsiyalari bilan bog'liq masalalarni o'rganish, ilmiy ekspiditsiyalar tashkil etib, aholi o'rtasida etnografik materiallar yig'ish va hokazo usullar keng qo'llanilganligi bilan ajralib turadi[9]. Shu bilan birga, mahalliy aholi orasida saqlanib kelayotgan shajaralar bilan ishlash, epigrafik materiallarga murojaat qilish, boshqa hududlardagi etnotoponimlar bilan o'zaro taqqoslash kabi usullar ham joy nomlarini o'rganishda o'ziga xos boy materiallar hisoblanadi.

Masalan, O'rta Osiyo etnotoponimikasini o'rganishda Janubiy Sibir, Mo'g'iliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, Volga-Uralbo'yi, Shimoliy Kavkaz, Qora dengizning shimoli, Sharqiy Yevropadagi turkiy etnik atamalarga murojaat qilish orqali mintaqaning turkiy xalqlariga tegishli joy nomlarining kelib chiqishi, etimologiyasi, shuningdek, ular bilan bog'liq migratsiya jarayonlarini tahlil qilish

imkoni bor. Shu jumladan, Zarafshon vohasi etnotoponimlarining negizini aniqlashda aytib o'tilgan o'lkalar, xususan, Volga-Uralbo'yi – Kasbiyning shimoli-sharqi hamda Janubiy-G'arbiy Sibir va G'arbiy Oltoy hududlari orasidagi etnonimlarning o'rni bo'lakcha .

O'rta asrlarda alohida turkiy elatlar sifatida etnik shakllanishning navbatdagi bosqichiga qadam qo'ygan no'g'oylar, boshqirdlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, o'zbeklar va turkmanlar yashagan hududlardagi aholi maskanlari nomiga ko'z tashlaganda ham umumiylik, o'zaro o'xshashlik bo'lganligi kuzatiladi. Ayniqsa, Jo'chi ulusi (Oltin O'rda) va uning izdoshlari – Abulxayirxon ulusi (1428-1468), Shayboniylar (1500-1601), Qozoq xonliklari (1465-1750), Qozon xonligi, Astraxon xonligi, Qrim xonligi (1783), Sibir xonligi, No'g'oy O'rda (XIV-XVI asrlar va hokazolar doirasida kechgan siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda ishtirok etgan bir necha o'nlab turkiy va turklashgan mo'g'il urug'lariga aloqador etnonimlar mintaqalari xalqlaridan har birining tarkibida u yoki bu darajada uchrashiga duch kelinadi.

Markaziy Osiyo turg'unlarining etnik shakllanishida eng ko'zga tashlanadigan bosqichlardan biri – bu Chingiziylar saltanati, ayniqsa, Jo'chi ulusi (Oltin O'rda) va Chig'atoy uluslari boshqaruvi davrida yangi-yangi siyosiy-harbiy uyushmalar tashkil topib, ularning har bir o'nlab turk-mo'g'ul urug'larini qamrab olar edi. Bu bosqichda mintaqaga Mo'g'uliston va Oltoydan bir necha o'nlab turk-mo'g'ul urug'larini qamrab olar edi. Bu bosqichda mintaqaga Mo'g'uliston va Oltoydan bir necha o'nlab turk-mo'g'ul urug'lari kirib keladi. Ularning xo'jalik turmush tarzi, urf-odatlarini yaqin bo'lgani uchun qay biri turkiy, qay biri mo'g'ul urug'i bo'lganini aniqlash ancha qiyin. Jumladan, “sulduz”lar – Ohangaron vodiysi (Toshkent viloyati)ga, “arlot”lar Buxoro vohasiga kelib o'rtnashadilar. Shuningdek, Amudaryo – Sirdaryo oralig'ida “qovchin”, “arg'in” va yana o'nlab uru'lar bu hududda joylashib, bu yerdagi turkiy elatlarning shakllanishiga o'z ulushini qo'shadilar[10]. Ular qachon til jihatida turklashgani yoki asli turkiy bo'lgani masalasini aniqlash qiyin bo'lganidek, qanday shartlar ostida “birdaniga turklashib”

ketganliklari, ayrim urug'lar esa ancha vaqtlargacha mo'g'ul tilini saqlab qolganliklari o'z yechimini topmagan chigal masala bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyoning Dashti Qipchoq qismida esa "qiyat", "qo'ng'iro't", "mang'it", "bahrin", "uyshun", "kenagas", "nayman" va yana bir qator turk-mo'g'ul urug'lari siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda ishtirok etib, ularning katta bir qismi no'g'oylar va boshqirdlar tarkibida joy oladilar[11]. Ushbu elat va urug'larga "turk-mo'g'ul" degan iborani ishlatishdan maqsad ularning qay biri turkiy, qay biri esa mo'g'ulcha so'zlagani aniq emasligidadir. Shu o'rinda Chingiziylar qo'shinida kelgan ushbu urug'larning ko'pchiligi turkiy bo'lishi mumkinligini ko'zdan qochirmaslik kerak. Chingiziylar boshqaruvi chog'ida o'z asari "Jome' ut-tavorix" (Tarixlar jamlanmasi)ni yozgan Rashiddin Fazlulloh (XIV asr) "bu yerda keltirib o'tilgan urug'larning ko'prog'i turkiy edi, "mo'g'ul"oti dovuq qozongach, ularning ko'pchiligi o'zlarini mo'g'ul atab ketdilar" deb yozganining o'ziyoq bu qarashni qo'llab-quvvatlaydi[12].

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan etnonimlarning sezilarli bir qismi mo'g'ulcha ekani ular orasida mo'g'ul urug'lari ham anchagina bo'lganini ko'rsatib turibdi. Boshqa tomondan esa "mo'g'ulcha ko'rinish olgan" ushbu etnonimlar Chingiziylar chog'ida shunday ko'rinish olgan bo'lsa kerak degan qarashga yetaklaydi. O'rnak keltiradigan bo'lsak, Turk hoqonligi boshqaruvi chog'ida "sakkiz o'g'uz" degan urug' Chingiziylar chog'ida mo'g'ulcha "nayman" (sakkiz) deb atala boshlagan degan qarashlar bor[13]. Shuningdek, Chingiziylar chog'ida yirik urug' bo'lgan jaloyirlar Uyg'ur hoqonligi (745-840) chog'ida boshqaruvchi sulola – "yag'laqar" so'zining keyinchalik mo'g'ullashgan ko'rinishi deb qaraladi (jaloyir – yag'laqar). Bundan tashqari, mo'g'ulcha ko'plik yasovchi qo'shimcha –t (ut, at) negizi turkiy bo'lgan etnonimlarni mo'g'ulcha ko'rinishga keltirgan bo'lishi mumkin: "qo'ng'ur" + at "qo'ng'iro't", "uyg'ur"+at "uyg'ur – uyrat" va b.

Bu masalada ayniqsa o'zbek, boshqird, no'g'oy, qozoq, qoraqalpoq va qirg'izlarda yalpi o'xshashlik kuzatiladi. Buni birgina Zarafshon vohasi o'zbeklariga tegishli etnotoponimlarining asosan boshqird, no'g'oy, qoraqalpoq, qozoq, qisman

esa qirg'iz va boshqa turkiy xalqlardagi etnonimlar bilan yaqin o'xshashlikka ega ekanini ko'rish mumkin. Masalan, ushbu vohadagi etnotoponimlarning Volga-Uralbo'yidagi boshqird va no'g'oylarda bor yoki yo'qligini aniqlashda Oltin O'rda muhitiga tegishli turkiy va forsiy tilli tarixiy asarlar, shuningdek, rus va boshqa yevropalik mualliflar asarlari va qaydnomalarida tilga olingan etnonimlar asqotadi. No'g'oy O'rdasi va unga qo'shni siyosiy uyushmalar tarixini tadqiq qilgan rossiyalik tadqiqodchilar T. Sultonov va B.B. Trepavlovning izlanishlarida keltirilgan etnonimlarning deyarli barchasini Zarafshon vohasi va unga qo'shni hududlardagi etnonimlar tarkibiga uchratish mumkin[14].

Ushbu etnonimlar qatoriga no'g'oy va boshqirdlar tarkibida uchraydigan “mang'it”, “mojor”, “xitoy”, “qipchoq”, “merkit” va hokazo etnonimlarni ham kiritish mumkin. Zarafshon vohasi etnotoponimlari orasida ularning ko'pchiligi saqlanib qolgan bo'lib, bu esa ushu urug'larning o'rta asrlarda Volga-Uralbo'yi – Markaziy Osiyo, shu jumladan, Zarafshon vohasi etnomadaniy aloqalari tig'iz bo'lganini ko'rsatadi.

Qisqasi, Zarafshon vohasida DashtiQipchoq ko'chmanchi aholisi bilan bog'iq joy nomlarining paydo bo'lishi o'rta asrlarda Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlarda kechgan qizg'in ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, Dashti Qipchoqning sharqiy hududlarida Abulxayrxon xonligi (1428-1468) va uning izdoshi bo'lmish Shayboniylar (1500-1601) hamda uning davomchisi Ashtarxoniylar (1601-1753) kabi sulolalar boshqaruv davri mahsulidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Вирский М.М. Волости Зерафшанского округа по сведениям 1873-1874 гг. // МСТК. Под. ред. Н.А. Маева. Вып. 4. – СПб, 1876; Ўша муалл. Список населенных мест Самаркандской области (по сведениям 1904 и 1905 гг.). – Самарканд, 1906; Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаета // СКСО. 1912. Вып. VII. – Самарканд, 1902.

2. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Сочинения. I. – М.: Наука, 1963; Бартольд В. В. О христианстве в Туркестане

в домонгольский период / Сочинения. V. – М.: Наука, 1964. – С. 263–302;
Бартольд В. В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии
/ Сочинения. Т. II. Ч. 2– М.: Наука, 1964. – С. 19–194. Радлов В.В. Из Сибири.
Страницы дневника. – М.: 1989. - С. 532-578.

3. Андреев М.С. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандской области в 1921 году. – Ташкент: “Наука”, 1922;

4. Поливанов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков. Вып. 1. Происхождение и наименование узбеков. – Т. 1926;

5. Потапов Л.П. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков «кунград» // Научный мысль, 1930, №1;

6. Зарубин И.И. Население Самаркандской области. (Численность этнографический состав и территориальное распределение с этнографической картой). – Ленинград: Изд. Акад. наук, 1926. – С.8-25;

7. Магидович И. Население // Материалы по районированию Средней Азии. Книга 1. Территория и население Бухары и Хивы. Часть 1. Бухара. – Т., 1926.

8. Олим Ф. Ўзбек уруғларидан қатағонлар ва уларнинг тили // Илмий фикр журналі, №1. – Самарқанд – Тошкент, 1930.

9. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978; Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул. муҳаррир: А. Муҳаммаджонов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005;

10. Туйчиев У. Отражение этнонимов в топонимии Булунгурского района // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе, 1980. – Вып. 2. – С. 34-45;

11. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985;

12. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. I. – Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2011;

13. Охунов А. Фарғона водийси этноойконимлари//Ўзбек тили ва адабиёти. – 2000. – №1. – Б.21-23; Охунов Н. Жой номлари таъбири / Мухаррир: З. Ҳакимов. – Т., 1994;

14. Туробов А.М. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2002; Бегалиев Н.Б. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2004; Бегалиев Н.Б. Самарқанд этнотопонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2011;

15. Бўриев С.Н. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили.: Филология фанлари бўйича номзодлик диссертацияси автореферати. – Т., 2010.

16. Маликов А. Из истории кунгратов Среднеазиатского междуречья // Сб. мат-лов Междунар. науч. конф. Алматы, 21-23 ноября 2007 г. / Под. Ред. Л.Е. Масановой, Б.Т. Жанаева. – Алматы: Дайк-Пресс, 2008. – С. 170-180;

17. Маликов А. Родо-племенная организация и этнические компоненты узбеков группы кунграт долины Зерафшана // “Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари” мавзuidaги IV Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент – Наманган, 2007. – Б. 82-87;

18. Маликов А. Узбеки группы «сарай» долины Зерафшана в XIX – начале XX вв. // Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti, 3-son, 2007. С. 3-10;

19. Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.). – Т., 2018. – С. 144-184.

20. Гребенкин А.Д. Таджики // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып.2. – М., 1872. – С.1–3;

21. Федченко А.П. Первый отчёт туркестанской учёной экспедиции // Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. – М., 1950. – С.65-66;